



## Toshkent shahar chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-fevral dastlabki ma'lumot

### I. Chakana savdo tovar aylanmasi

### II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

### III. Umumiy ovqatlanish korxonolari savdo aylanmasi

### IV. Meta ma'lumotlar

### V. Aloqador boshqa havolalar.

### I. Chakana savdo tovar aylanmasi


2025-yil 1-mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonolari soni 13 153 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 179 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 12 974 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-fevral oyida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 15 489,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 111,8 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 5 971,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 110,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 518,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 112,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 342,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 117,6 %) tashkil etdi.

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;


### Hududlar bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2699/meta-data>



Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va uyushmagan savdo tovar aylanmasi dinamikasi (*ulushi foizda*)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo


## II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 16 932 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 257 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 16 675 tani tashkil qildi.

Toshkent shahar bo'yicha 2025- yilning yanvar-fevral oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 34 500,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 10,4 % ga o'sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 23 395,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 107,4 % ga to'g'ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 67,8 % ni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (*mlrd so'm*)




Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2762/meta-data>



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega xududlar Chilonzor (118,6), Olmazor (117,5), Shayxontohur (115,9 %), Yangixayot (115,6 %) va Uchtepa (113,8 %) tumanlarida kuzatildi.

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2696/meta-data>

### III. Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi


2025- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 4 849 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 47 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4802 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-fevral oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 4 018,6 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 57,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;




### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: <https://siat.stat.uz/reports-filed/2827/meta-data>

### Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



#### IV. Meta ma'lumotlar

\*Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008 ), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

**ichki savdo** – yuridik va jismoniy shaxslarning mamlakat ichki bozorida tovar mahsulotlarini sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyati. Bunday savdo ikki toifaga bo'linadi ulgurji va chakana savdo;



**ulgurji savdo** – tovarlarni chakana sotuvchilarga qayta sotish (o'zgarishsiz sotish), korporativ mijozlar bilan savdo qilish (masalan, sanoat, tijorat, institutsional yoki professional foydalanuvchilar) yoki boshqa ulgurji sotuvchilarga qayta sotish; bunday savdo shaxslar kompaniyalar nomidan tovarlarni sotib olishda yoki ularga tovarlarni sotishda agentlar yoxud brokerlar sifatida harakat qilishni nazarda tutadi;

**chakana savdo** – tovarlarni sotish kanallaridan qat'i nazar yangi va foydalanilgan tovarlarni tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz, asosan, shaxsiy yoki uy iste'moli uchun aholiga qayta sotish (donalab yoki kichik miqdorlarda). Shuningdek, konsignatsiya yoki komissiya asosida sotish bo'yicha komitent nomidan ishlaydigan agentlarning faoliyatini ham o'z ichiga oladi;

#### IV. Aloqador boshqa havolalar

Ulgurji savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/964/table-data>

Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2696/table-data>

Chakana savdo aylanmasi hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2699/table-data>

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2700/table-data>

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2701/table-data>

Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2825/table-data>

Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2827/table-data>

Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'ati (hududlar kesimida, oylik)

<https://siat.stat.uz/reports-filed/2829/table-data>